


III. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 584,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 117,9 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -17,5 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 83,7 % ni), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 22,7 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,8 %) ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 1,9 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,1 % ni) o'sishi kuzatildi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 31,1 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,4 % ni) kamayishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)

2020- yil yanvar-dekabr



2021- yil yanvar-dekabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 12 209,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 83,7 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagisi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	2021- yil yanvar- dekabr	2020- yil yanvar- dekabr	Farqi, (+:-)
Paxta tolasi, ming tonna	59,3	40,8	18,5
Aroq - ming litr 100 % spirt	0	318,0	-318,0
Konyak spirti - ming litr 100 % spirt	79,4	15,1	64,3
Vino, ming litr	0	886,3	-886,3
Un, ming tonna	125,2	128,9	-3,7
O’simlik yog’i (tozalangan), ming tonna	14,9	19,1	-4,2

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
sanoat mahsuloti turlari
(yirik korxonalar bo‘yicha)**

	O‘lchov birligi	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	t	125 214,1
Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	61 689,0
Tozalangan o‘simlik yog‘i	t	13 268,0
Paxta tolasi	t	59 330,0
Paxta chigiti	t	93 346,1
Paxta linti	t	6 196,7
Xom ipak (pishitilmagan)	t	18,5
Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish	t	12 194,0
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 391,4
Erkaklar yoki o‘g‘il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	t	32,0
Trikotaj yoki to‘qilgan ustki kiyimlar	ming dona	395,2
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	ming dona	17 083,0
Elektr energiyasi	mln. kVt/s	6 643,8
Issiqlik energiyasi	ming gkal	77,6
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	ming so‘m	82 765 163,0
Oqava suvlarning shlamni	ming so‘m	11 461 915,0
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	ming so‘m	23 586 462,0

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**


	mlrd. so‘m	ulushi, % da
Ishlab chiqaradigan sanoat	12 209,5	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2 570,1	21,0
ichimliklar ishlab chiqarish	607,3	5,0
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3 872,7	31,7
kiyim ishlab chiqarish	1 416,6	11,6
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	274,5	2,2
yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	189,0	1,5
qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	82,5	0,7
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,7	0,0
koks va neftni qayta ishslash mahsulotlari ishlab chiqarish	10,9	0,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	209,9	1,7
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	175,5	1,4
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	287,6	2,4
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	911,6	7,5
metallurgiya sanoati	159,7	1,3
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	391,4	3,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	7,1	0,1
elektr uskunalar ishlab chiqarish	308,3	2,5
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	115,7	0,9
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	22,0	0,2
boshqa transport uchkunalarini ishlab chiqarish	9,9	0,1
mebel ishlab chiqarish	270,7	2,2
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	295,7	2,4
mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish	18,3	0,1

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2020- yil yanvar-dekabr oylarida - 2,7 % ni), o'rta-yuqori texnologiyalini ulushi 5,4 % ni (6,7 %), o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 14,6 % ni (12,5 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 78,5 % ni (78,1 %) tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

2020- yil yanvar-dekabr



2021- yil yanvar-dekabr



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 155,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 14,8 % ni) tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bug' bilan ta'minlash tizimlari va xavoni konditsiyalash o'tgan-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,7 foizga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-dekabr)

	2021- yil	2020- yil	2020- yilga nisbatan, % da
Elektroyenergiya - mln. kVt/s	6 643,8	5 570,2	119,3
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	77,6	87,5	88,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 155,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida To'raqo'rg'on tumani (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 124,4 % ga), Kosonsoy tumani (121,1 % ga), Chortoq tumani (116,6 % ga) hamda Chust tumani (116,1 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	14 584,8	100,0	117,9
Namangan sh.	5 892,2	40,4	111,1
Mingbulloq	655,9	4,5	108,8
Kosonsoy	590,4	4,1	121,1
Namangan t.	921,7	6,3	103,7
Norin	455,4	3,1	112,1
Pop	450,0	3,1	105,0
To'raqo'rg'on	2 480,9	17,0	124,4
Uychi	930,3	6,4	111,2
Uchqo'rg'on	911,6	6,3	101,2
Chortoq	293,5	2,0	116,6
Chust	753,9	5,2	116,1
Yangiqo'rg'on	249,0	1,7	112,5

**Tuman(shahar)lar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, indeksning o‘sish sur’atlari**
(2021 - yil yanvar-dekabr)
(o‘tgan- yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 40,4 % ulushini), To‘raqo‘rg‘on (17,0 %), Uychi (6,4 %), Namangan (6,3 %), Uchqo‘rg‘on tumani (6,3 %), Chust (5,2 %), tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko‘rilganda, To‘raqo‘rg‘on tumanida 10 750,9 ming so‘m, Namangan shahrida 9 023,7 ming so‘m, Uchqo‘rg‘on tumanida 5 168,6 ming so‘m, Namangan tumanida 5 069,7 ming so‘m va Mingbuloq tumanlarida 5 053,2 ming so‘m ming so‘mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘sish sur’atlari To‘raqo‘rg‘on tumanida (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 121,6 %), Kosonsoy (118,5%), Chortoq (114,4 %), Chust (114,0 %), Norin tumanida (110,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uchqo‘rg‘on (99,3 %) va Namangan (101,5 %) tumanlarida o‘sishning past sur’atlari kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2021- yil yanvar-dekabr)**



**Tuman(shahar)lar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va
iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so ‘mda
(2021- yil yanvar-dekabr)**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 199,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 21,9 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**

2020- yil yanvar-dekabr




2021- yil yanvar-dekabr



- Xorijiy korxonalar
- Viloyat boshqa korxonalar

- Xorijiy korxonalar
- Viloyat boshqa korxonalar

**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat
ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2021- yil yanvar-dekabr)**



2021- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur‘atlari


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha	5 030,5	115,5
Namangan sh.	9 023,7	108,6
Mingbuloq	5 053,2	106,5
Kosonsoy	2 742,2	118,5
Namangan t.	5 069,7	101,5
Norin	2 716,0	110,1
Pop	2 002,3	103,2
To‘raqo‘rg‘on	10 750,9	121,6
Uychi	4 239,0	108,7
Uchqo‘rg‘on	5 168,6	99,3
Chortoq	1 437,7	114,4
Chust	2 772,8	114,0
Yangiqo‘rg‘on	1 110,1	110,1

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 7 174,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,2 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on, Chortoq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uychi (75,4 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (14,7 %), Uchqo‘rg‘on (20,6 %) va Chust (43,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da
(2021- yil yanvar-dekabr)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 66 ta loyiha bo‘yicha 668,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari
(2021- yil yanvar-dekabr)

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	53	66
Korxonalar soni, birlik	34	50
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	315,0	668,9
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln AQSH doll.	2,1	10,1
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	520	1114

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini


Bugungi kunda viloyatda 6 577 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2 595 tasi Namangan shahriga, 522 tasi Uychi, 495 tasi Chust, 476 tasi Kosonsoy, 476 tasi Namangan, 428 tasi To'raqo'rg'on, 302 tasi Yangiqo'rg'on, 291 tasi Norin, 288 tasi Uchqo'rg'on, 269 tasi Chortoq, 257 tasi Pop hamda 178 tasi Mingbuloq tumanlariga to'g'ri keladi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1 524 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 52,2 % Namangan shahri, Uychi, Chust va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keldi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan

sanoat korxonalarini soni, birlikda

(2022- yil 1 yanvar holatiga)




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan (118,1 %) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 56,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha 2021- yil yanvar-dekabr oylarida iste’mol
tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’ati**


	Halq iste’mol mollari (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	8 219,7	100,0	118,1
Namangan sh.	3 722,3	45,3	120,5
Mingbuloq	476,9	5,8	104,2
Kosonsoy	521,0	6,3	146,6
Namangan t.	690,7	8,4	95,2
Norin	127,9	1,6	124,5
Pop	308,2	3,7	98,9
To‘raqo‘rg‘on	577,6	7,0	138,5
Uychi	320,6	3,9	126,6
Uchqo‘rg‘on	440,7	5,4	103,2
Chortoq	271,4	3,3	137,3
Chust	525,2	6,4	128,5
Yangiqo‘rg‘on	237,2	2,9	112,2

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari
 (2021- yil yanvar-dekabr)




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

2020- yil yanvar-dekabr



2021- yil yanvar-dekabr



Oziq-ovqat tovarlari

Nooziq-ovqat tovarlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 46,4 % ni, shuningdek Uchqo'rg'on tumani 11,5 % ni, Namangan tumani esa 10,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (2,6 m), Chortoq (164,6 %) va Uychi (134,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha 2021- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	(mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	2 832,4	100,0	114,7
Namangan sh.	1 312,2	46,4	116,7
Mingbuloq	77,6	2,7	2,6 m.
Kosonsoy	55,9	2,0	112,2
Namangan t.	304,8	10,8	93,9
Norin	55,3	2,0	124,7
Pop	152,4	5,4	75,9
To'raqo'rg'on	55,0	1,9	78,3
Uychi	148,7	5,2	134,7
Uchqo'rg'on	326,9	11,5	131,3
Chortoq	147,7	5,2	164,6
Chust	92,6	3,3	118,1
Yangiqo'rg'on	103,3	3,6	107,1

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 44,7 % ni, shuningdek To‘raqo‘rg‘on tumani 9,7 % ni, Kosonsoy tumani 8,6 % ni, Chust tumani esa 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Kosonsoy (152,2 %), To‘raqo‘rg‘on (150,7 %), Pop (140,5 %) va Chust (131,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo‘yicha 2021- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati

	(mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	5 387,1	100,0	120,0
Namangan sh.	2 410,1	44,7	122,6
Mingbuloq	399,2	7,4	93,4
Kosonsoy	465,1	8,6	152,2
Namangan t.	386,0	7,2	96,2
Norin	72,6	1,3	124,4
Pop	155,6	2,9	140,5
To‘raqo‘rg‘on	522,6	9,7	150,7
Uychi	171,9	3,2	85,8
Uchqo‘rg‘on	113,9	2,1	63,9
Chortoq	123,7	2,3	114,5
Chust	432,5	8,0	131,0
Yangiqo‘rg‘on	133,9	2,5	116,2